


Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida viloyatimizda 2770 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 714 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 18471 ta (12,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 20782 tani tashkil etgan.


Korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'zida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, hayotga tadbir qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,8 % savdoda, 12,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 12,3 % qurilishda, 11,9 % sanoatda, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa, va 29,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr holatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
Qashqadaryo viloyati	21438	20782	100	100
Qarshi sh	4647	4418	21,7	21,3
Shahrisabz sh.	1367	1355	6,4	6,5
tumanlar:				
G'uzor	968	912	4,5	4,4
Dehqonobod	1063	978	5,0	4,7
Qamashi	1414	1395	6,6	6,7
Qarshi	1607	1588	7,5	7,6
Koson	1811	1784	8,4	8,6
Kitob	1507	1499	7,0	7,2
Mirishkor	647	634	3,0	3,1
Muborak	817	781	3,8	3,8
Nishon	761	744	3,5	3,6
Kasbi	757	726	3,5	3,5
Chiroqchi	1702	1646	7,9	7,9
Shahrisabz	927	908	4,3	4,4
Yakkabog'	1443	1414	6,7	6,8

2018 yil yanvar-dekabr holatiga 2770 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 34,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahrida (601 ta), Chiroqchi (259 ta), Yakkabog' (203 ta) va Koson (203 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Mirishkor (95 ta), Kasbi (106 ta) hamda Dehqonobod (107 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (453 ta), savdoda (444 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (433 ta), qurilishda (404 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (30 ta), tashish va saqlashda (80 ta) hamda saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (89 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 dekabr holatiga			2017 yil 1 dekabr holatiga			2018 yil 1 dekabr holatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	313	118,6	18,4	425	135,8	20,7	433	101,9	15,6
Sanoat	261	96,0	15,3	388	148,7	18,9	453	116,8	16,4
Qurilish	264	115,8	15,5	260	98,5	12,6	404	155,4	14,6
Savdo	472	107,8	27,7	352	74,6	17,1	444	126,1	16,0
Tashish va saqlash	63	126,0	3,7	84	133,3	4,1	80	95,2	2,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	109	101,9	6,4	120	110,1	5,8	120	100,0	4,3
Axborot va aloqa	18	128,6	1,1	43	238,9	2,1	30	69,8	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	42	131,3	2,5	50	119,0	2,4	89	178,0	3,2
Boshqa turlari	161	89,0	9,5	334	207,5	16,2	717	214,7	25,9


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 16262 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 7188 ta, oilaviy korxonalar – 669 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7912 ta, va boshqalar 493 tani tashkil etadi.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 78 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga yoki 41,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 58 tasi qo'shma korxonalar, 20 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Qarshi shahar 25 ta (32,1 %), Kitob tumani 11 ta (14,1 %) va Qarshi tumanlari 6 ta (7,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Dehqonobod, Nishon, Chiroqchi, Yakkabog' tumanlari 2 ta (2,6 %), Koson, Kasbi, Shahrizabz tumanlari 3 ta (3,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Mirishkor tumanida tashkil etilmagan.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 47 ta (60,3 %), savdoda 11 ta (14,1 %) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 8 ta (10,3 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqa, tashish va saqlashda 1 ta (1,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta (3,8 %) va qurilishda 3 ta (3,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 22 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta, Afg'oniston – 3 ta, va Koreya Respublikasi – 3 ta, AQSh, Eron islom Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Niderlandiya Qirolligi – 1 ta, yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 11 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 5 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16119 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 11,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 3595 tasi (22,3 %) Qarshi shahriga, 1419 tasi (8,8 %) Koson, 1313 tasi (8,1 %) Qarshi hamda 1249 tasi (7,7 %) Chiroqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16119 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4711 tasi (29,2 %) – savdoda, 2618 tasi (16,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2542 tasi (15,8 %) - qurilishda, 2413 tasi (15,0 %) - sanoatda, 839 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 739 tasi (4,6 %) - tashish va saqlashda, 356 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 233 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1668 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-noyabr holatiga 2187 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 18,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahrida (508 ta), Chiroqchi (217 ta), Qarshi

(166 ta) va Koson tumanlarida (151 ta) tashkil etilgan. Eng kam Mirishkor (74 ta), Kasbi (75 ta) hamda Dehqonobod (79 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (453 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (432 ta), savdoda (444 ta) va qurilishda (403 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (30 ta), tashish va saqlashda (70 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (87 ta) tashkil etilgan.



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 689 tani tashkil etib, ulardan 669 tasi yoki 97,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 22,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



**Ro'yxatdan
o'tgan**




**Faoliyat
ko'rsatayotgan**



**Yangi tashkil
etilgan**

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 29,4 % yoki 197 tasi sanoat, 18,8 % yoki 126 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 19,0 % yoki 127 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,1 % yoki 101 tasi savdo, 2,8 % yoki 19 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % yoki 11 tasi qurilish, 1,5 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 11,4 % yoki 76 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-84-10
(75) 221-17-93